

O'SMIRLAR ORASIDAGI BIR-BIRIGA BO'LGAN AGRESSIYANING PAYDO BO'LISHI

Mamadaliyev Muhammad ali Xamidullo o'g'li

*University of Business and Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi
Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 22-13 guruh talabasi*

Bobayeva Ziyodaxon Maxamadjon qizi

*Ilmiy raxbar: University of Business and Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi
Pedagogika va psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi <https://orcid.org/0009-0005-56913196>*

Annotatsiya: ushbu maqola orqali siz o'smirlar orasidagi agressivlik harakatlarining sabablaridan haqida bilib olasiz. Hozirgi XXI asrda yoshlarda va o'smirlardagi rivojlanish ancha tezlashdi va hozirgi zamon o'smirlari orasida agresiya rivojlanib bormoqda ayniqsa oilasi butun bolalar va oilasida muommoli o'rtasidagi raqobat oxir oqibat agressiv harakatlarga olib kelmoqda.

Kalit so'zlar: *agressiya, o'smirli, ota-ona, o'smir, jamoa, yoshlik, xronologiya, oila, tajovuzkorlik, bolalik.*

Annotation: *through this article you will learn about the causes of acts of aggressiveness among adolescents. In the current 21st century, development in young people and adolescents has greatly accelerated, and aggression is developing among modern adolescents-especially since the competition between the whole family of children and the attitude of their family eventually leads to aggressive actions.*

Keywords: *aggression, adolescent, parent, adolescent, community, youth, chronology, family, aggression, childhood.*

Agressiya – odamlar guruhiga nisbatan jismoniy va ruhiy zarar yetkazishga qaratilgan individual yoki jamoaviy xatti-harakatlar majmua hisoblanadi.

O'smirlik — yoshlik davridagi hayot davri va ko'pincha bolalik va kattalik (yetuklik) o'rtasidagi vaqtni anglatadi. Shuningdek, u “yosh kishiga xos ko'rinish, kuch-quvvat va boshqalar” deb ta'riflanadi. Uning ma'lum bir yosh oralig'idagi ta'riflari turlicha bo'ladi, chunki yoshlik xronologik jihatdan ma'lum bir yosh oralig'iga bog'lanishi mumkin bo'lgan bosqich sifatida belgilanmagan; Uning yakuniy nuqtasini to'lanmagan ish yoki jinsiy aloqa kabi muayyan faoliyat bilan bog'lab bo'lmaydi.

Oila qon-qarindoshlik, qarindoshchilik (nikoh orqali) yoki birga istiqomat qilish orqali bog'langan odamlardan iborat ijtimoiy guruhdir. Ko'p jamiyatlarda oila bolalar ijtimoiylashuvi uchun asosiy institut vazifasini o'taydi. Antropologlar oilalarni matrilokal (ona va uning bolalari), er-xotin (bolalari bo'lsa, nuklear oila deyiladi) va qon-qarindosh (nuklear oila va qaynata-qaynana birga yashovchi) tiplarga ajratishadi.

Oiladagi parokandalik - hozirgi XXI arsda ajralishlar ko'p bo'lganligi uchun ko'p farzandlar tirik yetim bo'lib qolmoqda. Otasidan yoki onasidan ajralgan bolalar ongida va ruhiyatida kuchli salbiy o'zgarishlar yuz bermoqda asosan bolalarda kuchli stress. Tajavuzkorlik, kam gaplik, odam ovilik, atrofdagi boshqa bolarga nisbatan agressivlik

kuchaymoqda.

Kuztuvga olingan hudud ya'ni umumta'lim maktablaridan biri bo'ldi. 9 sinf o'quvchilari orasida olib borildi.

Sinf tuzilishi

Jami o'quvchilar soni-30 ta

Qiz bolalar soni-16 ta

O'g'il bolalar soni -14 ta

Yosh ko'rsatkichlari deyarli bir hil qizlarni kuztish noqulayroq bo'ldi shu sababli o'gil bolalarni kuzatdim. Oilaviy sharoitini olganda deyarli farq yo'q hammasini oilasi moliyaviy tamonlama yaxshi taminlangan. Kiyinishlari ham bir ortiqcha qimmat kiyim kiyadiganlar yoq hisob. Faqat o'gil bolalar ikkitasi e'tiborni tortadi. Farq shundaki qolgan 12 bolani oilasi butun ota-ona bilan yashashadi lekin 2 ta bolada bu yo'q ekan. Ularni shartli belgilar bilan o'z ismlari bosh harfi bilan belgiladim I va A ismli bolalar. I ismli bola malumotlari to'xtaladigan bo'lsam yoshi 15 da, oilaviy holati ota onasi ajrashgan onasi va opasi bilan yashaydi, qiziqishiga to'xtaladigan bo'lsak futbol o'ynashga judayam qiziqadi. O'qishi esa deyarli ikkichi darajali desa ham bo'ladi. Eng yomoni shundaki doim e'tiborni o'ziga tortishga harakat qiladi.

A ismli bola ma'lumotlari to'xtaladigan bo'lsak, yoshi 15 da. Oilaviy holati bitta farzand ota-ona ajrashgan onasi ishlash uchun chet elga ketgan qarindoshlari bilan birga yashaydi. Maktabdagi baholari qoniqarsiz holatda u ham futbol o'ynashga qiziqadi. Hamisha e'tiborda bo'lishni hojlaydi.

Sinfdagi qolgan o'quvchilar deyarli muommosiz desa ham bo'ladi chunki ularning oilasida muommo yo'q hisob ota-onasi va bobo-buvisi ham bor va oila axil inoq yashaydi.

A va I ismli bolalar ko'p hollarda o'zlaridan jismonan kuchsiz bolalarga nisbatan kuch ishlatish yo'li yoki so'z boyligi kam o'quvchilarni kamsitishni va butun sinfning e'tiborini tortishga harakat qilishadi.

Makatabda har doimgi futbol musobaqasi o'tkaziladigan kun keldi.

Har bir sinfga o'zlari uchun yevropa klublarining futbol formasini kiyish aytili. Mana endi haqiqiy agressivlik boshlandi. Chunki, A ismli o'quvchi BARSELONA klubi muhlisi, I ismli o'quvchisi esa REAL Madrid komandasi muxlisi ekan. Qolgan o'quvchilarni takliflari esa inobatga ham olinmadi chunki A va I ismli bollalar tajavuzkorlik bilan yo barsa yoki real formasini olamiz deb turib olishdi. Bu hatto mushtlashuvgacha bordi janjal bir tomondan tugamaydigandek edi faqatgina boshqa sinfda BARSELONA klubi formasi olinganligini bilishgandan so'ng janjal nixoyasiga yetdi. E'tiborni tortadigan joyi bu bolalar asosan bir-biridan ko'ra boshqa o'quvchilarga nisbatan ko'proq tajavuz ishlatiladi.

Masalan: oddiy holatda biron sinfdoshlari yangi kiyim kiysa yoki biron fan olimpiadasida qatnashmoqchi bo'lsa birinchilardan bo'lib salbiy fikrlar ulardan chiqadi, sinfning e'tibori biror o'quvchiga qaratilgan bo'lsa shu o'quvchiga nisbatan yomon munosabatda bo'lishadi va u o'quvchi kim bo'lsa ham sinf uchun foydasiz ekanligini aytishadi va bor e'tiborni o'zlariga qaratishga harakat qilishadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki hayotidan olganing faqatgina bitta narsa bo'ldi hech bir bola ota-onasidan ayrilmasin chunki bu narsa bola ruhiyatiga shunaqa kuchli ta'sir etadiki bunday stressdan chiqib ketish bola uchun juda qiyin bo'ladi. Ba'zi bir bolalar esa umrining oxigacha bu stress bilan yashaydi, shu sababdan ham oila quryotgan yoshlarni oilaga

yaxshilab tayyorlash kerak chunki ulardan tug'iladigan farzandlar ham yaxshi yashashga haqlidur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. ali Mamadaliyev, M., & Bobayeva, Z. (2024). O'SMIRLAR YOSHLARDA AGRESSIV XULQ-ATVORNING VAQTINCHALIK VA DAVOMLI SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(2), 68-72.
2. Nurmatjon o'g'li, T. J. (2024). PEDAGOGIK NIZOLAR VA ULARNI SAMARALI HAL ETISH YO 'LLARI. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(27), 94-97.
3. Bobayeva, Z. M. Q. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish. Science and Education, 4(2), 973-977.
4. Мансурова, Г. Р. (2024). ВЛИЯНИЕ ПРОКРАСТИНАЦИИ И ЛЕНИ НА СФЕРУ ПСИХИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ. JOURNAL OF CHILD PSYCHOLOGY AND PSYCHIATRY, 7(5), 77-82.
5. Kizi, B. Z. M. (2023). THE DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING OF YOUNGER SCHOOLCHILDREN IN THE LESSONS OF THE SURROUNDING WORLD. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 3(06), 186-189.
6. Nurmatjon o'g'li, T. J. (2024). O'SMIR YOSHLAR O'RTASIDAGI GIYOHVANDLIKNI VA ALKOGOLIZIMNI OLDINI OLISH PROFILAKTIKASI. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 3(26), 271-283.
7. Мансурова, Г. Р. (2024). ОСОБЕННОСТИ ВЛИЯНИЯ ЛЕНИ И ПРОКРАСТИНАЦИИ НА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ БЛАГОПОЛУЧИЕ ЛИЧНОСТИ. IMRAS, 7(5), 421-425.